ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

“XOLDORXON” DOSTONI TILIDA TAKROR VA UNING IFODA IMKONIYATLARI

Yuldasheva Zuhra Nizomiddinovna
O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0009-0005-8518-6813

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Xoldorxon” dostoni tilida qo‘llanilgan takror hodisasining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Takrorning doston matnidagi semantik, uslubiy va badiiy-estetik vazifalari yoritilib, uning qahramonlar nutqini ifodalash, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish, badiiy obrazlarni ta’sirchan aks ettirish hamda matn yaxlitligini ta’minlashdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, takrorning turli ko‘rinishlari dostondan olingan misollar asosida lingvistik va poetik jihatdan tahlil qilinib, ularning badiiy matn mazmuni va estetik qiymatini oshirishdagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: «Xoldorxon» dostoni, takror, lingvopoetika, badiiy matn, ekspressivlik, poetik vositalar, folklor.

“Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Xoldorxon” dostoni voqealar silsilasining betakrorligi bilangina emas, lisoniy tashakkulining o‘ziga xosligi bilan ham alohida ajralib turadi. Ayniqsa, dostonda qo‘llangan takroriy shakllarning badiiy-estetik ko‘rinishlari diqqatga sazovordir. Dostonning mazmuniy va intonatsion butunligini ta’minlashda takroriy shakllardan keng foydalaniladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, matnning butun holda saqlanishi, uning tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazilishida takrorlar muhim vosita sanaladi. Takrorlanuvchi birliklar badiiy asarda bir necha vazifani bajarishga moslashgan bo‘ladi. Estetik vazifa bu vazifalarning eng asosiylaridan biridir. “Xoldorxon” dostonidan tilida uchraydigan o‘ziga xos takror shakllari matn butunligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Dostonlar tilida ifodaviylikni orttirishning turli-tuman yo‘llari bor. Ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikrini tinglovchi yoxud kitobxonga tez va ta’sirchan yetkazish uchun tilning beqiyos imkonlaridan foydalanadilar. Takror deb ataluvchi poetik figura ana shunday imkonlarning faqatgina bir turi hisoblanadi. Badiiy matnda takrorning fonetik, morfemik, leksik va sintaktik ko‘rinishlaridan keng foydalaniladi. Takrorlanuvchi birliklarning aksariyati tez va oson idrok etiladi hamda o‘zaro qulay aloqalantiriladi. Ammo shunday takrorlar borki, ularni farqlamoq uchun tinglovchi yoxud kitobxondan jiddiy tayyorgarlik, matn bilan yaqindan oshnolik talab qilinadi. Bunday sirli takrorlar uch o‘lchamli rasmlarga o‘xshaydi. Ularni ko‘ra bilmoq uchun tilning shakl va ma’no imkonlarini teran anglamoq talab qilinadi. Ya’ni takrorning bo‘yu bastini ko‘rmoq uchun matnning ostki qatlamlarini ham tasavvur qilish kerak bo‘ladi.

Aytish mumkinki, til tabiatan takrorni maqbul ko‘rmaydi. Takrorlanuvchi birliklarga g‘alizlik sababchisi sifatida qaraladi. Badiiy uslubdan boshqa uslublarda takror ifoda g‘alizligini keltirib chiqaradi. Biroq badiiy uslubda takroriy birliklar alohida estetik maqsadga xizmat qiladigan vositaga aylanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari tilida ham bu holatni ko‘p kuzatishimiz mumkin. Hatto baxshilarning ijodiy laboratoriyasi bilan bog‘liq tadqiqotlarda takrorga asoslangan qolip ifodalarning eng birinchi yod olinadigan parchalar ekanligi aytiladi .

Tabiiyki, har bir ijodkor takror birliklardan mumkin qadar ehtiyotkorlik bilan foydalanishga harakat qiladi. Ayniqsa, to‘liq takrorga ko‘p murojaat qilinavermaydi. Muayyan matnlarda atayin takrorlardan foydalanilganligini ham ochiqcha kuzatishimiz mumkin. Mutaxassislar fikricha, takror o‘rinli va me’yorda foydalanilgan taqdirda asarning ta’sir kuchini qulay yo‘l bilan orttirish imkonini yaratadi.

Ijro etilayotgan asarni qiziqarli va ta'sirchan ifodalashning juda ko'p usullari mavjud. Baxshilar o'zlari ijro qilayotgan dostonni tinglovchiga tez va ta'sirli qilib yetkazishda tilning tasviriy vositalaridan unumli foydalanadilar. Takrorlar ana shunday tasviriy vositalar ichida eng ko'p qo'llangani hisoblanadi.

Aytish lozimki, badiiy asarda qo'llaniladigan takrorlarning ham turi ko'p. Fonetik, morfologik, sintaktik takrorlardan tashqari to'liq takror, to'liq bo'lmagan takror, nol ko'rsatkichli yoki yashirin takror, gradatsiyali takror va boshqalar.

Manbalarda takrorlarning matndagi o'rniga ko'ra ham turlari mavjudligi aytiladi . Matnda tez ko'riladigan, ijroda darhol idrok etiladigan sodda va aniq takrorlar bo'lganidek, matn strukturasidagi ishtiroki yashirilgan takrorlar ham borki, ularning mavjudligini anglash uchun tinglovchidan yoki kitobxondan biroz tayyorgarlik talab qilinadi. Asardagi bunday takrorlarni idrok etish uchun matn qatlamlari haqida tasavvurga ega bo'lish lozim. Matnning mazmuniy qatlamlari bosqichma-bosqich kuchayib boruvchi gradatsiyali takror va yashirin takrorlar hisobiga boyib boradi. Shu bois tadqiqotchidan bunday takrorlarni topish va matnning mazmun-mohiyatiga qanday ta'sir o'tkazayotganligini o'rganish talab qilinadi.

"Xoldorxon" dostonida takrorlanuvchi birliklarning o'rinlashuviga ko'ra quyidagi turlari ko'p uchraydi:

1. Simmetrik takrorlar. Bunda bir tovush, qo'shimcha, so'z yoki so'z birikmasi jumla yoki satrning bir xil o'rnida takrorlanadi. Asosan, boshda, o'rtada va satr so'ngida kelib ohang butunligini ta'minlaydi:

Men bu so'zdan g'am yemasman,
Men seni odam demasman,
Men ham sendan kam emasman,
Savash etsang, kel-kel beri. (100-bet)

Mazkur parchada olmosh, kelishik, bo'lishsizlik va shaxs-son qo'shimchasi o'rinlashuviga ko'ra simmetrik takrorlangan. Olmosh satr boshida kelgani uchun anaforik takrorni, shaxs-son affiksi satr so'ngida kelgani uchun epiforik takrorni, kelishik va bo'lishsizlik qo'shimchalari inforik takrorni hosil qiladi.

Ana bo'ldi toza maydon, taloto'p,
Har tarafdan shovqum chiqar urgin deb,
Ikki qo'shin endi bo'ldi aralash,
Ikki yoq ham g'ayrat qilar qo'ysak deb.(120-bet)

Keltirilgan parchada son (ikki), bo'lmoq (bo'ldi) fe'lining yaqin o'tgan zamon shakli, -ar (chiqar, qilar) o'tgan zamon davom fe'li affiksi va demoq fe'lining ravishdosh shakli (deb) simmetrik takrorlangan. Bunda, son satr boshida – anaforik takrorni, deb inversiyaga uchragan holda satr so'nggida – epiforik takrorni, bo'lmoq fe'lining yaqin o'tgan zamon shakli, -ar o'tgan zamon davom fe'li affiksi – inforani hosil qilgan.

Men ham sendan nochor emas,
Savash etsang, kel-kel beri,
Maydonda lof darkor emas,
Savash etsang, kel-kel beri.(100-bet)

Bu parchada esa, bir satrga sig'dirilgan jumlaning takrorini ko'rishimiz mumkin. Dostonda bunday takror ko'p uchraydi. Parchadagi umumiy ohang butunligini ta'minlashga nochor va darkor qofiyadosh so'zlaridagi o'xshash tovushlar ham o'z hissasini qo'shmoqda.

Quyidagi misolda simmetrik takrorning biroz farqli ko'rinishi berilgan:

Urush bo'ldi, olam to'ldi shovqumga,
Urushda kim qarar, yoronlar, kimga,
Ot chopib aralash bo'ldi ko'p lashkar,
Qirg'in tushdi odamzodday mardumga.(120-bet)

Misoldan ko‘rinib turganidek, urush so‘zi ikkinchi satrda o‘rin-payt qo‘shimchasini olib takrorlangan. Shunday bo‘lsa-da, bu umumiy vaziyatni o‘zgartirmaydi. Chunki mazkur anaforik takrorda ohang so‘z o‘zagi orqali aniq seziladi va affiks ohang uyg‘unligiga halaqit qilmaydi. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi (-ga) esa go‘yo har satrni “qulflab” intonatsion muvozanatni mustahkamlashga xizmat qilgan. Bundan tashqari –di zamon affiksi va bo‘lmoq fe’lining yaqin o‘tgan zamon shakli (bo‘ldi) inforik takror sifatida ichki ohang uyg‘unligini barqarorlashtirib turishga xizmat qilgan. Kim va kimga so‘roq olmoshlari ham matnning takrorlanuvchi unsurlari sifatida intonatsion butunlikning tugal bo‘lishiga xizmat qilgan. Shunga o‘xshash holatni quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

Qorong‘uliq bo‘p qoldi,
Chirog‘ o‘chganday bo‘ldi.
Terak butaganday bo‘ldi,
Laylak yutaganday bo‘ldi,
Dala o‘taganday bo‘ldi,
Lashkardan o‘lgan murdasin
Molni mataganday bo‘ldi.
Murda qoldi ayqashib,
Botir yurur chaypashib,
Xe bo‘g‘ishma bo‘ldi-da,
Xo‘p kekirdak siypashib.(287-bet)

Takrorni bu shaklda simmetrik joylashtirishdan asosiy maqsad, albatta, matnning intonatsion muvozanatini, butunligini, uyg‘unligini saqlash va ohang oqishini bir xilda davom etishini ta’minlashdan iboratdir. Shu bilan birga, simmetrik takrorni matn arxitekturasining fundamental unsurlaridan biri sifatida tushunish kerak.

2. Aralash takrorlar. Biz bu atamani simmetrik va asimmetrik takrorlarning aralash holda qo‘llanilishiga nisbatan qo‘lladik. Dostonlarda ichki ohangni tutib turishda tovush, so‘z, misra va jumlani qayta qo‘llashga asoslangan aralash takrorlar nihoyatda ko‘p uchraydi. Bunda simmetrik takrordagi muntazamlik talab qilinmaydi. Bu stilistik figura ham simmetrik takrorda bo‘lgani kabi fonetik takrordan sintaktik takrorgacha bo‘lgan barcha qatlamlarda kuzatiladi. Ularning barini to‘plab tahlilga tortish katta mehnatni talab qiladi. Biz bu o‘rinda ba’zi misollar tahlili bilangina cheklanamiz. Quyidagi misolga e’tibor beraylik:

Maydon bo‘lib ko‘p qiron
Tomoshani ko‘r endi.
Yulduz uchganday bo‘ldi,
Qunduz ko‘chganday bo‘ldi.
Ostidagi otlari
Qonni kechganday bo‘ldi. (287-bet)

Bu parchaning ilk satrida maydon va qiron so‘zlarining so‘nggi ikki tovushi o‘xshashligi bois gorizontal holdagi takrorni hosil qilgan va satrning ohang uyg‘unligini ta’minlagan. Ikkinchi satrdagi ko‘r so‘zi esa oldingi satrdagi ko‘p bilan birga butunlashgan va jumla yaxlit intonasiyaga ega bo‘lgan. Uchinchi va to‘rtinchi satrda bo‘g‘in (-duz), affiks (-gan, -day) va bo‘ldi so‘zshaklning simmetrik takrori musiqiylikni avj nuqtasini belgilab bergan. Beshinchi satrda unli fonemalardan “o” va “i”ning “musiqiy to‘lqin”ni hosil qilayotganini farqlash mumkin. Ayni unlilar oltinchi satrni beshinchi satrga bog‘lashga ham xizmat qilgan. Parchaning “to‘qimasini” mustahkamlash maqsadida yana (-gan, -day) affiksi va bo‘ldi so‘zshakli qo‘llangan. Shu tarzda har tomonlama yaxlitlikka erishilgan. Quyidagi parchada ham simmetrik, ham asimmetrik takrorlar asosida yuzaga kelgan intonatsion butunlikni sezish mumkin:

Qocha berdi ko‘p lashkar
Qoldi aqli shoshib.

Aq(i)li ketdi shohlarning,
Aq(i)lidan adashib.
Ana qoch-a, qoch bo‘ldi,
Qochadi to‘mpanglashib.(288-bet)

Aralash takror nomidan ham ko‘rinib turganidek, simmetrik bo‘lmagan, ko‘proq aralash holda, nomuntazam tarzda takrorlanuvchi birliklarga nisbatan ishlatiladi. Dostonning nasriy parchalarida bu holat yanada aniq ko‘rinadi:

Ol-ol, beklar, olganniki, beklarim, Qaytmay qilich solganniki, beklarim, Jallod bo‘lib jondan keching, botirlar, Davlat xizmat qilganniki, beklarim. Lekin bek Sardorning ko‘pdir odami, Odami ko‘plikdan sira yo‘q g‘ami, Mirza Askar ozlik qilib turibdi, Oz ham bo‘lsa uning ko‘pdir anjomi.

Aytish mumkinki, til muntazam ravishda taraqqiy etib turuvchi hodisa bo‘lganligi uchun davomli o‘zgarib turadi. Bu o‘sish-o‘zgarishlarning asosiy sabablaridan biri, tilning ifoda imkoni bilan bog‘liq ehtiyojni qondirish hisoblanadi. So‘z ustalari til birliklarini mahorat bilan ishlatish orqali tilning ifoda imkonini kengaytirishga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Ko‘hna adabiyotimizda so‘zlarni farqli shakllarda takrorlash orqali o‘ziga xos musiqiylikni hosil qilish keng tarqalgan stilistik an’analardan biri hisoblanadi. Bir satr yoki misrada ot, fe’l, sifat, son va boshqa turkumga oid so‘zlarni o‘zak yoki qo‘shimchali holda takrorlash orqali badiiy nutqning ta’sirchanligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, esda saqlab qolishni qulaylashtiradi. Klassik she’riyatimizda takrorga asoslangan alohida san’atlarning rivojlanganligi fikrimizni dalillaydi.

“Xoldorxon” dostonining matni takror va u bilan bog‘liq turli fikr-mulohazalarni yuritish imkonini berishi jihatidan ham boy dostonlarimizdan sanaladi. Ko‘p hollarda takroriy birliklar matndan uzib olingan holda tahlilga tortiladi. Bu tarzda takroriy birliklarning lisoniy va poetik xususiyatlarini teran tahlil qilish emas, balki to‘g‘ri tushunishimiz ham mushkul. Doston matnidagi takror konstruksiyalar tahlilga tortilganda, ularning matnning butuni hamda boshqa fonetik, morfemik, leksik va sintaktik birliklar bilan qanday munosabatga kirishganligini nazardan qochirmasligimiz kerak.

Umuman, lingvopoetik tahlilda barcha hodisalar kabi takrorning ham o‘z mantig‘i, qo‘llanish tarzi hamda poetik imkoniyatlari ochib berilishi zarur. Unli tovushlarning zich takroridan assonans hosil bo‘lishi barchaga ma’lum. Lekin nega aynan assonans hosil qilinyapti? Nega aynan matnning shu o‘rnida assonansdan foydalanilyapti? Assonansga ehtiyojni yuzaga keltirayotgan matn mazmuni nimalardan iborat va shu kabi xususlar o‘rganilishi lozim.

Takrorlar adabiy matnda har doim matnni shakllantiruvchi vosita sifatida, ifoda ta’sirchanligini orttiruvchi va ohang tugalligini hosil qiluvchi birlik sifatida qaraladi.

E’tibor berish kerak bo‘lgani takrorlanuvchi birliklar orasidagi masofadir. Takrorlangan unsurlar qay darajada tartibli bo‘lsa, matnning ritmik-intonatsion jihati shunchalik tartibli bo‘ladi. Odatda, takrorlangan so‘z va boshqa unsurlar ritmik-semantik jihatdan “bo‘sh” o‘rinni to‘ldirib keladi. Yaqin masofali takrorlar matnning ritmik faolligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

Uzoq masofali takrorlar esa o‘quvchi yoki tinglovchi xotirasini tozalash, yangilash, mustahkamlash maqsadiga xizmat qiladi. Bundan tashqari uzoq masofali takrorlar o‘quvchiga matnning murakkab to‘qimasida yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini ham o‘taydi. Bu jihatdan qaraganda, uzoq masofali takrorlar matnning semantik va struktural yadrosini tashkil qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining iste’dodli vakili Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Xoldorxon” dostoni tilida milliy tilning lug‘at boyligi, estetik imkoniyatlari yorqin namoyon bo‘lgan. Doston tilida takrorga asoslangan behad go‘zal lisoniy ifodalar mavjud va ularni tadqiq qilish dissertatsiyamizning asosiy vazifasi bo‘ldi.

Adabiyotlar

1. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – B.89.
2. Rahimov A.S. O‘zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2002.
3. Tannen, D. Tekrar, Diyalog ve Görüntü. İngiltere. 1989.
4. To‘ychiboeyv B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – 160 b.
5. Yuldasheva Z. “Haldarhan” Destanında Düzenli ve Düzensiz Tekrarlarin Poetik Özellikleri // Güncel Sanat Dergisi. – Turkiya, 2016. – 40-son. – Б.20-21.
6. Yuldasheva Z. Formal and poetic features of repetitions in thelanguage of the epic “Kholdorkhan” // The international journal of analytical and experimental modal analysis. Volume XII, Issue VIII. – India, August/2020. – P.967-973. Impact Factor. 6.3.
7. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.
8. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 137 б.
9. Йўлдошев М., Ядгаров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент: Фан, 2007. – 63 б.
10. Йўлдошева З. “Холдорхон” достонидаги такрорий бирликларнинг бадиий эстетик моҳияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. 2-сон. – Б. 74-77.
11. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – 72 б.
12. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 77 б.
13. Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.
14. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 129 б.
15. “Холдорхон”. Достон, айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. Ёзиб олувчи: Ҳоди Зариф ва шоирнинг ўзи. Нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев. Ўзбек халқ ижоди серияси, кўп жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 440 б.
16. Словарь поэтических фигур. http://figur.ir2.ru/figur.html